

TEMURIYLAR SHAJARASI MALIKALARI

S.Ma'murova

QDPI Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

Anotatsiya: *Mazkur maqolada Temuriylar xonadoni malikalari va ularning buyuk saltanat tarixida tutgan muhim o'rni va roli, boy va serqirra ijodiy-ilmiy merosi, malikalarning nafaqat oilada, farzand tarbiyasi balki, davlat boshqaruvida tutgan beqiyos o'rni haqidagi ma'lumotlar yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Takina begin, Turmush og'o, Uljoy Turkon og'o, Saroy Mulk xonim, To'kal xonim, O'g'I begin xonim, Sulton Baxt begin, temuriylar, temuriy malikalar, shajara.*

Tarixga nazar tashlar ekanmiz Sharq ayollari davlat idoralarini boshqarishda, fan, madaniyat, san'at, ma'naviyatni yuksaltirishda salmoqli hissa qo'shganliklarini, ularning dono va zukkoligi, ayollik iffati va salohiyat, mard va jasurligi to'g'risida ko'plab tarixiy ma'lumotlar yetib kelgan. Nafaqat Sharq, balki bizga tanish bo'lgan barcha mamlakatlarda ayollar orasida shavkatli hukmdorlar, oqila maslahatgo'ylar, yetuk donishmandlar zabardast olimalar, suhandonlar shoiralar va zukko san'atshunoslar yetishib chiqqan. Temuriylar sultanatida bunday oqila va tadbirkor donishmamd ayollarni ko'plab misol keltirish mumkin[1:1-2] O'z davrida tarixda nomi o'chmas yirik va qudratli sultanat barpo etgan, nafaqat o'zbek davlatchiligi balki jahon tarixida ham munosib o'rin egallagan, buyuk sarkarda va ilm-fan homiysi Amir Temurdir. Amir Temur va temuriylar davri tarixini faqat o'lkamizning balki, sivilizatsiya tarixida umume'tirof etilgan davr sifatida ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Amir Temur davlatining idoralarini mustahkamlashda va uni boshqarishda, mamlakatni iqtisodiy, xo'jalik, madaniy jihatdan yuksaltrish, obodonlashtirishda, Temuriy amirzodalarni zamon sohiblari, barkamol kishilar qilib tarbiyalashda avvalo sohibqiron validasi Takina begin va saroy malikalarining sardori Saroymulkxonim va boshqa temuriy malikalarning xizmatlari cheksizdir.

Amir Temurning keljakda buyuk inson bo'lib yetishuvida onasi Tegina beginning hissasi katta bo'lgan. Tegina Mohbegim taxminan 1318-1353 yillar oralig'ida yashab o'tgan bo'lib, Buxoro shayxining qizi bo'lgan hamda yoshligidanoq ilmu marifatli shaxs bo'lgan. Takina xotun 16 yoshida Kesh amiri Muhammad Tarag'aybekka uzatilgan(1334). Keyinchalik yaratilgan "Qissai Temur", "Temur qissasi" va Toshkentlik tarixchi Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma"(1908) asarida Takina xotun hayotiga oid ayrim ma'lumotlar mavjud.

Shuningdek, yana bir mashhur Temuriy malikalardan biri, Sohibqiron davlat boshqaruvida yaqindan yordam bergan, davlat siyosatida va Temuriy shahzodalar tarbiyasida muhim o'rin kasb eta olgan shaxs bu Saroymulkxonim (Bibixonim)

edi. Saroymulkxonim nomi tilga olinganda ko'z o'ngimizda, bir tomondan, buyuk Amir Temurning jufti haloli gavdalansa, ikkinchi tomondan, davlat va jamiyat ishlarida arboblik darajasiga yuksalganda, har qanday erkak siyosatchi havas qilsa arziydigan dono va tadbirkor ayol gavdalanadi [2:18-19]. Tarixning tuhfasini qarangki, Amir Temur va Saroymulkxonim aynan chingiziylar hukmronligida o'zaro kurashlar avjiga chiqqan bir yilda dunyoga kelgan. Saroymulkxonim chig'atoy ulusiga mansub, mog'ul xonlaridan Qozonxonning qizi bo'lib 1341-ylda tug'ilgan. Qozonxon taxtdan azl etilib, qatl qilingan chog'da Saroymulkxonim 5 yoshda edi [3:54-56]. U balog'atga yetgach 1355-yilda Movorounnahr hukmdori amir Qozonxonning nabirasi Amir Husayn uni nikohiga kiritdi. 1370-yilda Sohibqiron Amir Temur jangda Amir Husaynni yengib, uni qatl qildirgach, Movorounnahr hukmronligini o'z qo'liga oladi. Tabiyki Amir Husaynning bir nech xotinlari bo'lib, haramning ulug' Bekasi-Tarmashirinxonning qizi Suyunch Qutlug' og'o edi. Sohibqiron Amir Temur maqtulning haramidagi malikalar orasidan Qozonxonning qizi – Saroymulkxonimni, Bayon Sulduzning qizi – Ulus og'oni, Xizr Yasuriyning qizi – Islom o'g'oni hamda Tag'oy Turkon xotunni tanlab olib, idda muddati 3 oy o'tgach, o'z nikohiga kiritadi. Sohibqiron Amir Temur Saroymulkxonimni o'z nikohiga kiritgach, "Ko'ragon" unvoniga ega bo'lgan. Negaki Ko'ragon iborasi mo'g'ulcha so'z bo'lib, "kuyov" degan ma'noni bildiradi. Zero, Saroymulkxonim mog'ul xonlaridan birining qizi bo'lganligi tufayli, Amir Temur mog'ul xonining kuyovi, ya'ni "Amir Temur Ko'ragon" nomini olgan edi. Sohibqiron Amir Temur Saroymulkxonimni o'z nikohiga kirkunga qadar haramida boshqa ayollar ham bo'lgan edi. Lekin xon avlodiga mansub Saroymulkxonim haramdagi barcha malikalardan ulug'rog'I hisoblanib, "katta xonim" yoxud "Bibixonim" degan unvoniga noil bo'ladi. Albatta bunday e'zozga musharraf bo'lish uchun aql-zakovat, did-farosat, fikrlash doirasining ulkanligi bosh omil bo'lgan. Zotan tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Saroymulkxonim zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor va aql-zakovat sohibasi hisoblangan shu sababdan Amir Temur o'zining jamiki temuriy shahzodalari va nabiralarining tarbiyasini uning zimmasiga yuklagan. Shu bilan birgalikda ushbu oqila ayol husn-latofat bobida ham benaziri edi. Saroymulkxonim insonparvar, vatanni suyuvchi, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy va madaniy hayotida yaxshigina xabardor bo'lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan ayol edi. Ayniqsa ilm-marifatga alohida e'tibor qaratib turgan ayol edi. Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlarida Saroymulkxonim ko'pincha birga yurgan. Tarixiy manbalarning yakdillik bilan bergen ma'lumotlariga ko'ra, o'ta ziyrak, tadbirkor Saroymulkxonim saltanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muommolarni hal qilishda o'zining oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan.

Sohibqiron haramida Saroymulkxonimdan keyingi o'rinda turuvchi Amir Temurning yana bir xotinlaridan biri Tukal xonim edi. Tukal xonim Mo'g'uliston xoni Xizrxo'janing qizi bo'lib, 1397-yilda Sohibqiron Konigilda katta to'y qilib uni o'z nikohiga kiritgan. Yuqorida aytilganidek Tukal xonim xon qizi bo'lganligi uchun

saroyda Saroymulkxonimdan keyingi o'rinda turgan, ya'ni "kichik xonim" deb atalgan. 1397-yilda Sohibqiron Tukal xonim sharafiga Samarqandda "Bog'i dilkushoni" ni barpo etgan.

O'ljoy Turkon og'o- Sohibqiron Temurning birinchi rafiqasi, uning tug'ilgan sanasi noma'lum. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, u amir Qozog'onning o'g'li amir Muslining qizi bo'lgan. Shu sababdan u Tbiat (Bbiat) urug'idan, bobosiga aloqador bo'lgan qabiladan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Ularning nikohiga bobosi amir Qozog'on va akasi Amir Husaynning Amir Temur bilan bo'lgan ittifoqi sabab bo'ldi. Natijada ushbu ittifoq 1356-yilda amir Qozog'on Uljoy Turkon og'oni Amir Temurga uylantirishi bilan yanada mustahkamlandi. O'ljoy Turkon og'o 1356-yilda birinchi o'g'li Jahongirni dunyoga keltirgan[4]. U Amir Temurga hamma joyda hamroh bo'lgan va unga yaqindan yordam bergen. 1362-yilga kelib u Amir Temurning 2-qizi Sulton Baxt Begimni dunyoga keltirdi. O'sha yili Amir Temur 1360-yildan beri yaxshi munosabatda bo'lgan Tug'luq Temurga xizmat qilishni to'xtatdi. Amir Husayn bilan birgalikda Tug'luq Temurga qarshi chiqadi. Ammo Mo'g'ul xoni tomonidan yuborilgan kichik guruhlar amirlar askarlari safini kamayishiga sabab boladi. Tug'luq Temur jangchilarining navbatdagi hujumidan keyin Amir Temur o'z safdoshlarining katta qismidan ayrilib, O'ljoy Turkon og'o bilan sahro bo'ylab birga chekinadi. Amir Temur surgunligining eng og'ir davrida (1361-1362) u og'ir sharoitlarda eriga hamroh bo'ldi. 1367-yilda O'ljoy Turkon og'o vafot etadi. Shu sababli uning akasi va eri o'rtasidagi barcha ishonchli munosabatlar buziladi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, u Samarqand tashqarisida vafot etgan, 1370-yildan keyin Amir Temur jasadni Shohizinda maqbarasiga dafn qilgan.

Shu bilan birgalikda Amir Temurning qiz farzandlari haqida so'z borar ekan, katta qizi O'gi Begim xonim va kichik qizi esa Sulton Baxt begin hisoblanib, bu ikki Temuriy malikalar ham saroyda o'zining munosib o'rinaliga ega edilar. O'gi Begim xonim asl ismi Tag'ayshoh tavallud topgan davri no'malum bo'lib, Onasi Turmush Og'o bo'lgan. Temuriylar davri tarixini yoritishda benazir tarixchi hisoblangan Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining "Zafarnoma" asarida O'gi Begim xonim shaxsi haqida bunday yozadi, O'gi Begim xonim husn bobida tengi yo'q, aql-idrokda benazir bo'lgan. Amir Temur bu qizini yaxshi ko'rgan va o'ziga yaqin tutgan. Amir Temur qizini amir Musoning o'g'li Muhammadbekka nikoh qilganlar. O'gi Begi xonim Muhammadbekdan Sulton Husayn mirzo ismli bir o'g'il ko'rgan. 1382-yilda O'gi begin xonim bedavo kasallikdan vafot etgan. Amir Temurning kichik qizi Sultron Baxt begin(1360-66- 1430- yillar, Nishopur). Onasi O'ljoy Turkon Og'o begin. Sulton Baxt begin tabiatan shaddod, o'jar va erkaklarga xos tabiatga molik bo'lib, erkaklarni unchalik yoqtirmas edi. Sulton Baxt begin Sher Bahromning o'g'li Muhammad Mirkaga nikohlangan. Sohibqiron kuyoviga Xuttalaon viloyatini tortiq qilgan. Biroq Muhammad Mirka 1388-yil isyon ko'targan, isyon bostirilib Muhammad Mirka ukasi Abdufath bilan Sohibqironning o'g'li

Umarshayx Mirzo farmoniga ko'ra qatl qilingan. 1389-yilda Sulton Baxt begin amir Dovut dug'latning o'g'li amir Sulaymonshohga nikoh qilingan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amir Temur va Temuriylar davri mamlakatimiz tarixida uyg'onish davri hisoblanadi. Fan va madaniyat rivojida nafaqat Temuriyzoda shahzodalar, shu bilan birgalikda malikalar xizmati ham mujassamdir. O'z davrining zukko malikalari hisoblangan ushbu tarixiy shaxslar Amir Temur va Temuriylar davlati poydevori mustahkamligi va uning gullab-yashnashida beqiyos o'ringa ega bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fayziyev.T. Temuriy malikalar. – Toshkent. “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi”, 1994. –B. 1-3
2. Azamat Ziyo. O'zbek ayollari tarix sahnasida. –Toshkent. “Fan”, 2002. –B. 18-19
3. Fayziyev. T. Temuriylar shajarasi. –Toshkent. “Yozuvchi”, 1995. –B. 54-56
4. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma
5. Hakimova. M. Temuriy malikalarning hayoti va faoliyatiga tarixiy nazar.
6. www.ziyouz.com.
7. uz.wikipedia.org.